PEDAGOGIKA

UDK: 37.015.3:159.954 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a13**

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСТВА СТУДЕНТОВ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN STUDENTS IN TECHNOLOGY LESSONS

[1]Tursunov Jo‘rabek Egamberdievich
[1]Qo‘qon davlat pedagogika instituti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari texnologiya fani oldidagi dolzarb vazifalar va o‘quv jarayonidagi, psixologik, pedagogik hamda texnik-texnologik jihatlari, ta’lim-tarbiya jarayonida fanlararo bog‘lanishlardan foydalanish haqida va umumiy o‘rta ta’lim tizimini isloh qilish, o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirish, o‘quvchilarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, buning uchun yangicha o‘qitish metodikalaridan foydalanishga doir ko‘plab tashkiliy-huquqiy va amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida ma’lumot berilgan. Bu orqali raqobatbardosh va yuksak salohiyatli kadrlar avlodini tayyorlash tizimini yaratish maqsad qilinmoqda. Bu esa o‘quvchi-yoshlarda kreativlik bilan bog‘liq qobiliyatlarni shakllantirishni dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda. Shu bois innovatsion vositalar asosida yoshlarda kreativlik qobiliyatlari shakllantirish zarurati haqidagi fikr va mulohazalar yuritilgan.

Аннотация

В данной статье речь идет о современных задачах перед наукой о технологии в общеобразовательных школах, а также о психологических, педагогических и технико-технологических аспектах образовательного процесса, использовании межпредметных связей в образовательном процессе. Приводятся сведения о многих организационно-правовых и проводимых научно-исследовательских работах по реформированию системы общего среднего образования, совершенствованию технологий обучения, формированию современных знаний и навыков у учащихся, использованию в этих целях новых методов обучения. Благодаря этому планируется создать систему подготовки поколения конкурентоспособных и высокопотенциальных кадров. Это делает формирование у студентов творческих способностей одной из актуальных задач. Именно поэтому на основе инновационных инструментов обсуждаются мысли и мнения о необходимости развития творческих способностей у молодежи.

Abstract

This article provides information about the current tasks before the technical science of general secondary schools and the psychological, pedagogical and technical-technological aspects of the educational process, the use of interdisciplinary links in the educational process, and the general secondary education. Many organizational, legal and scientific research works are being carried out on reforming the system, improving teaching technologies, forming modern knowledge and skills in students, using new teaching methods for this purpose. Through this, it is aimed to create a system of training a generation of competitive and high-potential personnel. This makes the formation of creativity-related skills in students one of the urgent tasks. That's why, on the basis of innovative tools, thoughts and opinions about the need to develop creative abilities in young people have been discussed.

Kalit so‘zlar: *loyiha, dizayn, kreativ shaxs, ijodkorilik, ijodiy fikrlash, qobiliyat, ijodiy qobiliyatlar.*
Ключевые слова: *проект, проектирование, творческая личность, креативность, творческое мышление, способность, творческие способности.*
Key words: *project, design, creative person, creativity, creative thinking, ability, creative abilities.*

KIRISH

Jahon miqyosida jamiyatni raqamlashtirish sharoitida o‘quvchilarni tez o‘zgaruvchan sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlash (soft skills), raqamli iqtisodiyot sharoitida ko‘p tarmoqli axborotlarni izlash va qayta ishlash, tizimli va tanqidiy fikrlash, kreativ texnikalarni o‘zlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim dolzarblik kasb etadi. Raqamli transformatsiya nuqtai nazaridan o‘quvchilarda kreativ va dizayn fikrlashni shakllantirish, guruh va komandada ishlash, tashabbuskorlik, intiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish, ta’lim oluvchilarning atrof-olamni to‘g‘ri anglay olishi, o‘zining iqtidorini mustaqil aniqlay olishi “kelajak maktabi”ning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda kelajak yangiliklarini yaratuvchi kreativ shaxsni shakllantirish maqsadida dizayn maktablar (d.schools) tarmog‘ini kengaytirish orqali o‘quvchilarda loyihaviy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning innovatsion-pedagogik tizimini takomillashtirish muhim ustuvorlik kasb etmoqda.

Dunyoda ta’lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish, kreativlikni rivojlantirishga doir ta’limiy faoliyatni tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirish, o‘quvchilarning kreativ faoliyatini amalga oshirishning innovatsion

pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, sinfdan tashqari ishlar jarayonida o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish, hamkorlikdagi loyihaviy faoliyat orqali ta’lim oluvchilarni dizayn fikrlashga o‘rgatish, dizayn ta’limi orqali kreativ shaxsni shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. Kreativ pedagogikaning “kelajak maktabi”ni yaratish bilan bog‘liq prognostik imkoniyatlarini kengaytirib borish orqali o‘quvchilarning ijodiy-intellektual salohiyatini rivojlantirish muhim dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizda maktab ta’limini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish, ularni kasbiy o‘sishini mustaqil rejalashtirishga o‘rgatish, raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy kasblarni egallash layoqatini tarbiyalashga katta e’tibor qaratilmoqda. “Ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida yangi, shu jumladan muqobil yondashuvlarni o‘rganishga va ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, o‘quv muddatlarini o‘zgartirmagan holda o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta’minlovchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish” o‘qitish usullarini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Bu esa, dizayn fikrlash va o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning o‘zaro aloqadorligini asoslash, dizayn loyihalarning o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishga doir didaktik imkoniyatlarini ochib berish, dizayn loyihalar asosida o‘uvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning interfaol texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bundan kelib chiqqan holda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya darslarining «Texnologiya va dizayn» yo‘nalishi bo‘yicha dizayn loyihalar vositasida o‘quvchilar kreativ qobiliyatlarini shakllantirish bilan bog‘liq muammolarni maqsadga muvofiq tadqiq etishda uning mazmun va mohiyatini tashkil etuvchi hamda ta’lim sohasining takomillashgan DTS, o‘quv dasturiga mos keluvchi zaruriy shakl, metod hamda vositalarini ilmiy asosda tanlab, tizimlashtirish lozimdir.

Bugungi kunda o‘quvchilarda kreatiklikni shakllantirish va bu orqali ularni mehnat va kasbiy faoliyatga nisbatan ijodiylik ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. O‘quvchilarda kreativlik iqtidorlarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim mazmunida texnologiya darslarining o‘ziga xos o‘rni bor. Ayniqsa, texnologiya darslaridagi dizayerlikka yo‘naltiruvchi va o‘quvchining ijodiy imkoniyatlarini oshiruvchi pedagogik jarayonni takomillashtirish bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshiradi.

Umumiy o‘rta ta’limda o‘tiladigan texnologik ta’lim – bu o‘qituvchining o‘quvchilar bilan hamkorlikda rejali tashkil qilingan faoliyati bo‘lib, u o‘quvchilarning zamonaviy ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasini boshqarish darajasidagi mos bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga, o‘quvchilar ma’naviy ongini tarbiyalashga, ularning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, ishlab chiqarish texnikasi, texnologiyasi, tashkiliy-iqtisodiy asoslari to‘g‘risidagi ilmiy tushunchalarni, mehnatga ijodiy munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan izohlanadi.

Texnologiya darslarida o‘quvchilarga o‘rgatilishi lozim bo‘lgan umummehnat hamda umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi o‘quv materiallari tarkibida dizayn elementlariga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan materiallar mazmunini belgilash, avvalo, hozirgi kunda ishlab chiqarish korxonalaridagi mutaxassislar, ixtirochilarning mehnat faoliyatini kuzatish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini namoyon bo‘lish jarayonini loyihalash va uni amalda qo‘llash malakalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari “Texnologiya” o‘quv fanining DTS va o‘quv dasturi tahlilidan ayon bo‘ladiki, dasturda o‘quvchilarni dizayn (badiiy konstruksiyalash) asoslari bilan yaqindan tanishtirish, dizaynga oid bilim va ko‘nikmalarni doimiy ravishda shakllantirib borish belgilangan. Mazkur dasturda 6 sinf o‘quvchilari «dizaynerlik ishlaridan amaliy mashqlar bajarish. Kasblarga doir buyumlar va mahsulotlarning estetik va iqtisodiy jihatlarini hisobga olgan holda loyihalash»ga oid bilim va ko‘nikmalarini egallashi nazarda tutilgan. 6 sinfda esa o‘quvchilar oddiy buyumlarni konstruksiyalash va modellashtirish jarayonida xalq hunarmandchiligi sohalariga tegishli mahsulotlarning badiiy-estetik xususiyatlarini tahlil qilish va dizaynerlik yechimlarini hal qilish mashqlarini bajarishi ko‘zda tutilgan bo‘lsa, 7 sinf o‘quvchilari uchun esa, tayyorlanadigan

buyumlarni loyihalash va unda dizayn usullarini qo‘llash, dizaynerlik vazifalarini bajarish yuzasidan loyihalar tuzish bo‘yicha topshiriqlar bajarilishi belgilangan.

Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’limdagi texnologiya darslarida modernizatsiyalashgan Davlat ta’lim standarti mazmuniga ko‘ra o‘quvchilar “texnologiya” o‘quv faniga oid bir qator bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari ko‘zda tutilgan. Unga ko‘ra o‘quvchilar mehnat jarayoni haqida dunyoqarash, umummehnat bilim, ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lish, kasb-hunarlar haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lish, xalq xo‘jaligi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘lishi, turli materiallarga boshlang‘ich badiiy ishlov berish ko‘nikmalariga ega bo‘lish, milliy mehnat an’analari, urf-odatlarini bilish, buyumning texnologik xaritasini tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishga oid vazifalarni hal etishga e’tibor qaratilgan. Keltirilgan hamda shakllantirilishi belgilab qo‘yilgan malakalar tarkibida o‘quvchilarda kreativlikni tarkib toptirishning didaktik imkoniyatlari mavjud.

Texnologiya darslarida o‘quvchilarning topshiriqlarni bajarishi bilan bog‘liq harakatlari, ayniqsa, ijodiy faoliyat, jumladan, dizayn loyihalar vositasida kreativlikni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlarni o‘zlashtirishning fiziologik jihati harakatning traektoriyasi, maromi va kuchini, energiya sarfi va toliqish ko‘rsatkichlarini kamaytirish, shuningdek, ma’lum ishchi harakatlarni o‘zlashtirishdagi mashqlarni fiziologik jihatdan asoslashni nazarda tutadi.

Texnologiya darslarida qo‘llaniladigan bilim shakllari turlicha bo‘lib, ko‘rgazmali harakat shaklida, masalan, sharti ko‘rgazmali shaklda, uni hal qilish esa harakatlar vositasida amalga oshiriladi, so‘zli harakat shaklida esa masala sharti so‘zlar yordamida ifodalanib, uni hal qilish ma’lum harakatlarni talab etadi. Texnologik ta’limdagi oxirgi o‘rinda shakl ko‘proq oraliq holat bo‘lib hisoblanadi, chunki yechim, odatda, amaliyot bilan sinab ko‘riladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Texnologiya ta’limi o‘quvchilarda kreativlikni shakllantirish asosida ularda kasb tanlashda to‘g‘ri tanlovni amalga oshirish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishni maqsad qiladi. Misol uchun, 5-7 sinflarda, asosan, kasb haqida ma’lumot beriladi. O‘quvchilar kanday ommaviy ishchi kasblar borligi bilan tanishadilar. Bu kasblarning elementlari o‘quvchilarning ustaxonadagi faoliyati mazmunini tashkil etadi. Bu hol o‘qitishning shu davrida o‘quvchilarni umumtexnik tayyorlash vazifasiga to‘la mos keladi. 6-sinfda va ayniqsa, 7-sinfda kasb to‘g‘risida ma’lumot berish bilan bir qatorda kasbiy tarbiyalash ishlari ham olib boriladi. Bunga sabab shuki, 7-sinfni bitirish arafasida o‘quvchilar bo‘lgusi mehnat tayyorgarlikning profili (yo‘nalishi)ni tanlab olishlari zarur. Har bir profil ko‘plab ommaviy ishchi kasblarni o‘z ichiga oladi. Bular ustaxonadagi mashg‘ulotlarning mazmuni bilan izchil aloqada bo‘lgan kasblar bo‘lishi (masalan, metall va yog‘ochga, gazlamaga ishlov berishga oid kasblar) yoki ular bilan hech qanday aloqador bo‘lmagan kasblar bo‘lishi ham mumkin. Biroq, maktablarning ish tajribasida shunday manzarani kuzatish mumkin: o‘qituvchilar bu masalani o‘quvchilarning o‘zlashtirishlariga qarab xal etishga urinishadi, ya’ni a’lochi o‘quvchilarga tanlash huquqi beriladi, past o‘zlashtiruvchilar esa qolgan kasb turlaridan birortasini tanlashga majbur bo‘lishadi.

Faylasuflarning fikricha, kreativlik – bir vaqtning o‘zida subyektning o‘ziga va tashqi olamga tegishli bo‘lgan xolat, xodisa bo‘lib, uning mazmuni va mohiyati, avvalo, ijodkorlikni anglatuvchi tushunchadir. Kreativlik yaratuvchanlik yuqori ijodkorlik - subyektvlik ishtirokisiz amalga oshmaydi va faqat ijodkor shaxsning o‘ziga xos xususiyati bilan amalga oshiriladi.

Pedagogikada kreativlik deganda, asosan, ixtirochilik, originallik, fantaziya, sezgirlik, muammoni tez hal qila olish qobiliyatlari tushuniladi. Bu qobiliyatning ko‘p qirrali ekanligi ta’kidlanadi. Kreativlik – bu har tomonlama fikrlash, his qilish va harakat qilishga bo‘lgan potensial layoqat hisoblanadi. U shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo‘l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o‘ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug‘atlariga asoslanib o‘qituvchining kreativligiga uning fikridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta’rif berish mumkin. Uning zamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash bir narsaga turli tomondan yondashishni anglatadi. Har qanday inson tug‘ilganda kreativ qobiliyat bilan dunyoga keladi. Uni qaysi yo‘lga yo‘naltirish va rivojlantirish o‘qituvchi zimmasiga yuklatiladi. Demak, maktabda ta’limning barcha turlarida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga e’tibor qaratish barkamol avlodni tarbiyalashning tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, kreativlik quyidagilarni qamrab oladi:

1. Ijodiy faoliyatga qaratilgan intellektual faoliyatni borligi, yangiliklarga qaratilgan g‘oyalarni yaratishga imkon beradi (konsepsiyaning tor ma’nosida ijodkorlik qobiliyati), shuningdek, ushbu yangi g‘oyalarni yaratish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi.

2. Tasodifiy g‘oyalarni bera olishdan qo‘rqmaslik, taxmin qilingan chegaradan chiqa olish, noaniq vaziyatlarda samarali faoliyat yurita olishga imkoniyat beradigan shaxsiy sifatlarni mavjudligi.

3. Metaijodkorlik – bu insonning hayotdagi mavqeini ifodalovchi fikrlar bo‘lib, asosan qoliplar, stereotipli hukmlar va harakatlardan voz kechishni anglatadi. Yangi narsalarni idrok etish va yaratish istagi, o‘zingizni va atrofdagi dunyoni o‘lchash, erkinlik, faoliyat va rivojlanishning yuqori qiymati.

Umuman olganda, kreativlik (ijodkorlik)ni insonga yangilik, noaniqlik, uzatilayotgan axborot ma’lumotlarning to‘liqsizligi va muammolarni hal qilishning aniq algoritmi bo‘lmagan holatlarda samarali ishlashga imkon beradigan intellektual va shaxsiy xususiyatlar majmuasi sifatida ta’riflash mumkin.

Bugungi ta’lim muhitida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida dizayn loyihalar vositasida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirishga yetarli etibor qaratilmagani, hozirgi kunda mazkur tadqiqot ishiga zaruriyat borligini ko‘rsatmoqda.

Shuni ta’kidlash kerakki, har bir o‘quv materiali o‘quvchilarga muammoni taqdim etish yoki uning yechimiga qaratilgan choralarga unchalik mos kelavermaydi. Bu ikki omil bilan belgilanadigan muammolilik darajasiga bog‘liq bo‘lib, ushbu muammo doirasida o‘quvchilarga ma’lum va noma’lum bo‘lgan nisbatlaridan chiqarilgan muammoning murakkabligi darajasi hamda muammoni hal qilishda o‘quvchilarning kreativ yondashuvi ishtiroki ulushi bilan belgilanadi.

O‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirishga nisbatan muammoli faoliyat yondashuvining mohiyati quyidagilardan iborat:

- maxsus shart-sharoitlarni yaratishda, o‘quvchilar ilgari olingan ahamiyatga ega bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga tayanib, o‘quv va kasbiy vazifalarni mustaqil ravishda kashf etadilar va tushunadilar;
- o‘quvchilarning aqliy va amaliy mashg‘ulotlarda, o‘quv va kasbiy vazifalarni hal qilishning eng maqbul variantlarini topish va asoslash;
- o‘quvchilarning mustaqil faoliyatida muammoli vaziyatni o‘zlari hal qilish;
- o‘quvchilarning izlanish faolligini kuchaytirishda, o‘quv va kasbiy muammolarni hal qilishning yangi usullarini izlashda va shu bilan o‘zida kreativ fikrlashni rivojlantirishda;
- atrofda turgan haqiqatni ijodiy o‘zgartirishda.

XULOSA

Xulosa o‘rnida texnologiya ta’limi o‘quvchilarda kreativlikni shakllantirish asosida ularda kasb tanlashda to‘g‘ri tanlovni amalga oshirish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishni maqsad qiladi. Misol uchun, «5-7-sinflarda asosan kasb xaqida ma’lumot beriladi. O‘quvchilar qanday ommaviy ishchi kasblar borligi bilan tanishadilar. Bu kasblarning elementlari o‘quvchilarning ustaxonadagi faoliyati mazmunini tashkil etadi. Bu hol o‘qitishning shu davrida o‘quvchilarni umumtexnik tayyorlash vazifasiga to‘la mos keladi. 6-sinfda va ayniksa, 7-sinfda kasb to‘g‘risida ma’lumot berish bilan bir qatorda kasbiy tarbiyalash ishlari ham olib boriladi. Bunga sabab shuki, 7-sinfni bitirish arafasida o‘quvchilar bo‘lgusi mehnat tayyorgarlikning profili (yo‘nalishi)ni tanlab olishlari zarur. Har bir profil ko‘plab ommaviy ishchi kasblarni o‘z ichiga oladi. Bular ustaxonadagi mashg‘ulotlarning mazmuni bilan izchil aloqada bo‘lgan kasblar bo‘lishi (masalan, metall va yog‘ochga, gazlamagaishlov berishga oid kasblar) yoki ular bilan hech qanday aloqador bo‘lmagan kasblar bo‘lishi mumkin»[6].

Xulosa qilib aytganda, texnologik ta’lim o‘quvchilarda mehnatsevarlik bilan birga, kreativ qobiliyatlarni shakllantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, o‘quvchilarda kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirishda mehnat muhitini his qilish, texnika va texnologiyalarning yaratilish jarayoni, undan foydalanishga doir bilimlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O‘zbekiston. 2021. –B. 238
2. O‘quv dasturlarini uzviyligini rivojlantirish – ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. 14.09.2020 http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/4889.htm

3. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения. Москва : Педагогика, 1981. – С.48. [Lerner I.Ya. Didactic foundations of teaching methods. Moscow : Pedagogika, 1981. – p.48.]

4. Karimov I. Mehnat ta'limida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil etishning uyg'unlashgan texnologiyalari: Monografiya. T.: Adabiyot uchqunlari, 2015. – b. 139. [Karimov I. Harmonized technologies for organizing the activities of creativity of students in labor education: monograph. T.: Sparks of literature, 2015. - b. 139].

5. Tursunov Jurabek Egamberdiyevich (2022). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN STUDENTS. Neo Scientific Peer Reviewed Journal. Volume 5, Dec. (pp 93-98).

6. J.E.Tursunov. O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishda fanlararo bog'lanish. FarDU. ILMIY XABARLAR 2022/№5-son. 12-17 betlar.

7. Tursunov J.E. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH. ПЕДАГОГИКА И ПСИХОЛОГИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ. Институт управления и социально-экономического развития (Россия), Центр профессионального менеджмента" Академия бизнеса" (Россия), Центр поддержки научных исследований WORLDLY KNOWLEDGE (Узбекистан). 6 апреля 2023. (pp 168-173).